

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2021.San.54.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

Tursunova Gulshanoy Artikjanovna

**MUSIQIY SULOLAVIYLIK FENOMENI: TIPOLOGIYASI, MAZMUN VA
MOHIYATI**

17.00.02 – Musiqa san’ati

San’atshunoslik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

**San’atshunoslik fanlari doktori (DSc)
Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
по искусствоведению**

Content of dissertation abstract of doctor of Art (DSc)

Tursunova Gulshanoy Artikjanovna

Musiqiy sulolaviylik fenomeni: tipologiyasi, mazmun va mohiyati.....3

Турсунова Гулшаной Артикжановна

Феномен музыкальных династий: типология, сущность и содержание29

Tursunova Gulshanoy Artikjanovna

The phenomenon of a musical dynasties: typology, essence and content59

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works63

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
PhD.03/30.12.2021.San.54.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR
MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSEVATORIYASI

Tursunova Gulshanoy Artikjanovna

**MUSIQIY SULOLAVIYLIK FENOMENI: TIPOLOGIYASI, MAZMUN VA
MOHIYATI**

17.00.02 – Musiqa san’ati

San’atshunoslik fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.DSc/San18.raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) / Ilmiy kengashning (www.konservatoriya.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

G‘ofurbekov To‘xtasin Botirovich

san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Azimova Arzu Nishanovna

san’atshunoslik fanlari doktori,

professor

Maxmudova Gulzar Rafik kizi

san’atshunoslik fanlari doktori, U.Gadjibeyli nomidagi Baku musiqa akademiyasi professori (Ozarbayjon)

Hamidov Hojiakbar Hamidovich

tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi falsafa doktori ilmiy darajasini beruvchi PhD03/30.12.2021.San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «__»_____kuni soat __dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxotohur rayoni, B Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 239-46-53; faks: (99871) 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent, Shayxontohur rayoni, B.Zokirov ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 239-46-53.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__»_____kuni tarqatildi.

(2024 yil «__»_____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A.Hamidova

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,

san’atshunoslik fanlari doktori, professor

B.Sh.Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,

san’atshunoslik fanlari bo‘yicha PhD

S.B.Qosimxo‘jayeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash

qoshidagi ilmiy seminar raisi,

san’atshunoslik fanlari nomzodi, professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo madaniyati tarixida shunday musiqiy sulolalar borki, ularning uzoq davrlar mobaynida musiqa san'atida olib borgan uzluksiz samarali faoliyati, bir necha avlod vakillarining mazkur soha rivoji va ravnaqiga qo'shgan hissalarini, qo'lga kiritgan ulkan ijodiy yutuqlari jamiyat tomonidan yorqin fenomen sifatida qayd etilishiga asos beradi. Sulolalar faoliyati Jahon va mahalliy san'atda katta davr, butun bir mamlakat ijodiy maktabi va ijrochilik uslublarining yuzaga kelishi va rivoji, davomiyligi va taraqqiyotini ijodiy ta'minlashga asos bo'lgan. Musiqiy sulolalar – kasbga yo'naltirilgan ijtimoiy guruh tarzida, madaniyat va san'at olamida musiqiy ta'lim institutlarining «oilaviy» shakli sifatida maydonga kelib, o'z o'rnini va mavqegini asrlar mobaynida jamiyatda mustahkamlab borgan.

Jahonga tanilgan yetuk bastakorlari, kompozitorlari va ijrochilaridan tashkil topgan musiqiy sulolalarning yorqin namoyandalari faoliyatiga ko'plab chet el mualliflarining monografik nashrlari, qo'llanmalari, maqolalari bag'ishlangan bo'lsada, musiqiy sulolaviylik muammosi kesimida muayyan avlodlar misolida ularni tadrijiy va sarhisob musiqiy faoliyati deyarli tadqiq qilinmagan. Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda musiqiy sulolaviylikning ayrim aspektlari, xususan, yetakchi chet el psixologlari, irsiyotchilar va sotsiologlarning musiqiy psixologiya masalasini yorituvchi fanlararo yo'nalishlaridagi ilmiy va empirik izlanishlar doirasidagina amalga oshirilgan bo'lib, maxsus ilmiy tadqiqot ishlarni olib borilishi zaruratini belgilaydi.

O'zbekiston musiqa ilmida musiqiy sulolaviylik masalasini o'rganishda dastlabki qadamlar tashlanganiga qaramay, azaliy milliy qadriyatlar va sharqona ta'lim tizimiga asoslangan o'zbek xalq ijodkorlarning yorqin silsilali va uzuluksiz faoliyati ilmiy va amaliy jihatdan hanuzgacha tadqiq etishni talab etadi. «Yangi O'zbekiston»ni barpo etish – yaqin va olis tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqur o'rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo'limizni yangi bosqichda davom ettirish demakdir». ¹ Yurtimizning zabardast musiqiy sulolalari tomonidan yaratilgan ibratli an'analarni o'rganish, qo'lga kiritgan yutuqlari zamirida yoshlarga o'rnak bo'lish, bilim va tajribalarni o'zlashtirish, hamda ta'lim, musiqiy ijrochilik va ijodkorlik sohalari oldida to'planib qolgan ko'plab muammolarni samarali yechishda poydevorga aylanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi PF-6000-son «Madaniyat va san'at sohasini jamiyat hayotidagi o'rnini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2017 yil 31 maydagi PQ-3022-son «Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari xususida»gi, 2018 yil 26 avgustdagi PQ-3920-son «O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Yangi O'zbekiston» gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari // 2021 yil 17 avgust – №165 soni. – 3 bet. <https://yuz.uz/file/newspaper/723d202ae9e43abfe6b21f3a335e4c83.pdf>

xususida»gi, 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son «O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda musiqiy sulolaviylik fenomeni maxsus ilmiy mavzu qamrovida alohida tadqiq etilmagan bo‘lsada, yetakchi chet el psixologlari, irsiyotchilar va sotsiologlarning fanlararo yo‘nalishlarda bajarilgan tadqiqotlari, jaxonning yetakchi ilmiy markazlari va oliiy ta‘lim muassasalarida, jumladan, Marshall University (AQSH), University of Melbourne (Avstraliya), University of Exeter, Birmingham City University (Angliya), Ariel University, Ha-Merkaz ha-Akademi Peres (Isroil), Università degli Studi del Piemonte Orientale «Amedeo Avogadro» (Italiya), Hochschule Luzern (Shvetsariya), University of Groningen (Niderland), Shopen nomidagi musika universiteti (Polsha), Rossiya fundamental tadqiqotlar fondi (FNISS RAN) shuningdek, O‘zbekiston davlat konservatoriyasida olib borilmoqda.

Kasbiy oilaviy vorislik va musiqiy irsiyatning shakllanishi va rivoji bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarida quyidagi natijalarga erishilgan: kasb egallashda oila muhitining ahamiyati va ota-onalarning ta‘siri ko‘rsatib berilgan (Avstraliya, Angliya, Rossiya); musiqiy qobiliyat va moyillikning irsiy va egallangan omillari tahlillar asosida tasniflangan (AQSH, Polsha, Niderland), sulolalar misolida kasbiy oilaviy institut faoliyatini takomillashuvi irsiyat va sotsiologiya fanlarining tarixiy va nazariy tadqiqotlari ishlab chiqilgan (Isroil, Italiya, Shvetsariya).

Dunyoda madaniyat va san‘at tarakkiyotni ta‘minlashda sulolalar rolini oshirish buyicha kator, jumladan, kuyidagi ustuvor yunalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmokda: kasbiy sulolalar vakillarining yuqori ishlash ko‘rsatkichi va kasbiy vazifalarni hal qilishda samaradorlik omillarini yoritish, har bir musiqiy sulolaning ichki kasbiy talab-mezonlariga tayangan o‘ziga xos ta‘lim tarbiya modeli va strategiyasini aniqlash, Jahon madaniyati taraqqiyotida musiqiy sulolavik fenomenini nazariy va tarixiy asoslarini shakllantirishdan iborat.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ma‘lumki, sulolaviylik ijtimoiy hayotning o‘ziga xos fenomeni sifatida qayd etilib, tadqiq etilishi borasida fanlararo tavsifiga ega. Xususan, gumanitar va ijtimoiy fanlarning tarkibida sulolaviylik vorislik an‘analar kesimida ochib beriladi. Tarixiy fanlar o‘z nigohini maqsadli ravishda aniq tarixiy shajaraning irsiy «daraxtini», tarixiy hukmdor

² www.semanticscholar.org; www.researchgate.net; www.research-repository.uwa.edu.au; www.cambridge.org; www.academia.edu; www.cell.com; www.journals.uchicago.edu; www.isras.ru;

oilalar va ularni boshqargan sulola vakillari haqidagi ma'lumotlarni yoritishga e'tibor qaratsa³, siyosatshunoslar sulolalar va davlatlararo munosabatlarni obyekt sifatida tanlaydilar⁴. Iqtisodchi olimlar tomonidan sulolaviylikni o'rganish asosan yirik ishbilarmonlarning tarixda qo'lga kiritgan moliyaviy natija va yutuqlarini, va bu borada oilaviy sharoitda shakllangan munosabatlar mexanizmlarini tahliliga to'xtaladilar⁵. Sulolaviylik fenomeni jurnalistika va adabiyotda badiiy talqinida ham yoritilib kelingan misollar kam emas⁶. Tibbiyot soha mutaxassisleri ham, tabiiy fanlar tizimida irsiyot bilan bog'liq bir qator masalalarni sulola doirasida o'rganishgan⁷. Yirik olim va faylasuflar esa jahon ilmi rivojining avlodlar vorisligi misolida ochib berishga harakat qilishlari ko'zga tashlanadi⁸.

Ma'lumki, jamiyat haqidagi ilm rivoji va mavqeyini o'sib borishi kasbiy sulolalarni ijtimoiy tahlillar kesimida o'rganishga keng yo'l ochib beradi. Shunday sulolalarda avlodlar ketma-ketligi bevosita nasl, vorisiylik mezonlari, ta'lim va o'qitish tamoyillari bilan uzviy va yaxlit hodisa sifatida qayd etilishi e'tiborlidir. Zamonaviy bosqichda sulolalarning ijtimoiy muvaffaqiyati nafaqat sulolaga tegishli irsiyat belgilari, balki, ta'lim borasida qo'lga kiritgan yutuqlari bilan ham aniqlanadi. Shunday sulolalar ma'lum ichki resurslarga ega bo'lgan shaxslar, va

³Жадько Е. 100 великих династий. – М.: Вече, 2008; Рапелли П. Симфолы власти и великие династии (перевод Марк Юсим) – М.: Омега, 2008. – 384 с.; Скляренко В., Вологжина Н., Панкова М., Батий Я. 50 знаменитых царских династий – Ростов на Дону: Феникс, 2009; Прасол А. Сёгуны Токугава. Династия в лицах – М.: Издательский дом ВКН. 2018. – 448 с.; Муховицкая Л. Морозовы. Династия меценатов. – М.: Рипол-Классик, 2017- 256 с.

⁴Андрейченко Г., Сапрыкина Е. Роль ученых династий в интеллектуально-научном потенциале России // История науки и техники в Северо-Кавказском регионе: становление и перспективы развития: сборник статей по материалам региональной научной конференции. – Ставрополь: СГУ, 2009. – С. 22-30; Андрейченко Г., Сапрыкина Е. Семейные традиции в истории российской науки // Гуманитарные и юридические исследования. – 2014. № 2. – С. 18-22; Белоглазова Е., Генидзе Н. Династии переводчиков в России // Переводческий дискурс: междисциплинарный подход: сборник статей по материалам II международной научно-практической конференции. – Симферополь: Ариал, 2018. – С. 32-36; Бурдые П. Социальное пространство: поля и практики / пер. с фр.; сост., общ. ред. пер. и послесл. Н. А. Шматко. – СПб. – М.: Алетейя; Институт экспериментальной социологии, 2005. – 576 с.

⁵<https://www.dissercat.com/content/professionalnye-dinastii-v-sovremennom-rossiiskom-institute-zdravookhraneniya>

⁶Посухова О. Роль профессиональных династий в академической среде российского общества // Власть. 2018. № 7. – С. 89-95; Ткач О. Заводская династия как социально-культурный феномен: советский и постсоветский периоды: автореф. дисс. к. соц. н. – СПб., 2008. – 23 с.; Чернышова В., Жиброва Т., Руженцев С. Медицинская династия Тумановских // Молодежный инновационный вестник. – 2019. Т. 8. № S1. – С. 36-37.

⁷Калашникова К. Профессиональные династии в современном российском институте здравоохранения. 22.00.04. Автореф. кан. дисс.- Волгоград, 2012. – 26 с.

⁸Лезгина Д. Проблема преемственности поколений (в западноевропейской философии). 09.00.11 Автореф. кан.дисс – СПб, 2004. – С.18.; Исева Э. Системная преемственность в развитии общества:социально-философский анализ. 09.00.11 Автореф. кан.дисс – Уфа.,2017. – 20 с.

muayyan mutaxassislarning maxsus toifasi shakllanishi sifatida baholanib kelinmoqda.

2018-2010 yillarda Rossiyada V.A.Mansurov rahbarligida kasbiy sotsiologik muammolarni tadqiq etishga qaratilgan yirik davlat grant loyihasi asosida amalga oshirilgan hammualliflik monografiyada⁹ davlat va bozor munosabatlari ta'siridagi sulolaviylik muammosi tadqiq qilingan. Bu borada kasbiy faoliyat turlarining modellari, avlod resurslari, oilaviy strategiya, ularni metodologik va amaliy faoliyat qirralari, shuningdek, o'zgaruvchan tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik taraqqiyoti, madaniy o'zgarishlari kesimidagi holati aniqlangan. Musiqiy sulolalar masalasi ushbu monografiyada maxsus yoritilmagan bo'lsada, ammo, o'zga sohalarda qo'lga kiritilgan yutuqlar dissertatsiyamizni metodologik poydevorini shakllantirishda yordam berdi.

Musiqiy sulolaviylik masalalari bugunda asosan psixologiya, qobiliyat muammolarni ochib beruvchi musiqiy psixologiya masalalari doirasida yoritiladi¹⁰. Musiqiy sulolaviylikni o'rganishning boshlang'ich aspekti musiqiy oilaviy pedagogika faniga borib taqaladi. Ma'lumki, oilaviy pedagogika – bevosita oila doirasida tarbiyalashga qaratilgan fan bo'lib, oilaviy ta'lim tarbiyaning o'ziga xosligini, uni ichki potentsiali, ota-onalarga barkamol shaxsni shakllantirishga yordam beruvchi va ilman asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqarishda yordam beradi. Oilaviy ta'lim tizimi asosan pedagogika va psixologiyaning umumiy masalalariga qaratilgan tadqiqotlarda keng yoritilgan bo'lsada, biroq musiqiy oilaviy ta'lim masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar kam. Ularning orasida pedagogika yo'nalishi bo'yicha L.Matveyeva N.Kartashev, S.Feruz¹¹ kabi olimlarning izlanishlari mavjud.

Bugungi kunda musiqiy pedagogika yo'nalishida ham musiqiy sulolaviylik fenomenini o'rganilishi bir tomondan zamonaviy musiqiy ta'lim tizimining muammolari, ularning sabablari va istiqbollari chuqurroq anglab olishga yo'l ochishi bilan birga, tarixda nom qoldirgan musiqiy sulolalarning ta'lim tajribasini tahlil qilish asnosida, tayanch musiqiy ta'lim an'alarini inkishof qilish imkonini yuzaga chiqarishi bilan izohlanadi. Jahon va mahalliy musiqa madaniyatida o'zini

⁹Россия фундаментал тадқиқотлар фонди томонидан бажарилган лойҳа: «Профессиональные династии как социальный механизм воспроизводства профессиональных групп» № 18-011-01129 А; Профессиональные династии: воспроизводство профессиональных групп: [монография] / В.Мансуров [и др.]; отв. ред. В.Мансуров; ред. Е.Иванова; ФНИСЦ РАН. – Москва: ФНИСЦ РАН, 2020 – 208 с.

¹⁰ Хавторин Б. Династия Федотовых-Ростроповичей и развитие музыкальной культуры Оренбурга в XX столетии: Образование, творчество, исполнительство. 17.00.02 Автореф. канд дисс. – Оренбург, 1991-С.26; Кирнарская Д. Музыкальные способности. – М.: Таланты-XXI век, 2004. – 496 с.

¹¹Матвеева Л. Теория и практика музыкального образования ребёнка в семье. (монография) – ФГБОУ ВПО «Урал. гос. пед. ун-т». – изд. 2,- Екатеринбург, 2015 – 241 с.; Музыкальное воспитание и образование ребенка в современной российской семье. 13.00.02. Автореферат док. дисс. – Екатеринбург, 2010 – 47 с.; Карташев Н. Социально-педагогические основы музыкального воспитания детей в семье. 13.00.06. Автореферат док.дис. – Москва, 1997 – 34 с.; Феруз.С.Воспитание музыкальной культуры младших школьников в семье. 13.00.01. Автореферат кан.дисс – Москва, 1990. – 19 с.

ibratli an'analari bilan nom qoldirgan ijodkorlar va ularning avlodlari faoliyati, shuningdek, musiqiy janr va yo'nalishlar, ijro uslublari va maktablarni tahliliga bag'ishlangan ilmiy nashrlarlarda¹² bu masalani ma'lum qirralari yoritilib, musiqiy sulola namoyandalari va avlodlarining o'rganish jarayonida ishimiz uchun ko'mak berdi.

Jahonning taniqli musiqa ijodkorlari, kompozitorlari va ijrochilari, xususan, musiqiy sulolalarni tashkil qilgan ayrim yorqin namoyandalarni alohida faoliyatiga ko'plab chet el mualliflarining monografik nashrlari, qo'llanmalari, maqolalari bag'ishlangan bo'lsada, biroq, musiqiy sulolaviylik muammosi kesimida, ularni tadrijiy va sarhisob musiqiy faoliyati deyarli tadqiq qilinmagan. Ayrim maqolalar musiqachilarni zurriyoti bilan bog'liq masalalarga oydinlik kirituvchi ma'lumotlar bazasini shakllantirishga yordam beradi va bu borada o'rganilayotgan muammoni musiqiy irsiyat bilan bog'liq ayrim qirralarini belgilaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan Oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Zamonaviy o'zbek musiqashunosligining dolzarb muammolari» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi musiqiy sulolaviylik fenomeni tipologiyasi va mazmun mohiyatini yoritish asosida Jahon madaniyatida sulolalar tutgan o'rni va mavqeini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Jahon musiqa madaniyatida musiqiy sulolaviylik fenomeni kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillarini aniqlash;

o'rganilayotgan masalaning interdissiplinar ahamiyatini belgilagan holda konseptual asosini ochib berish;

kasbiy sulolaviylikda an'ana, musiqiy qobiliyat va tarbiyaning o'rni kabi tarixiy-nazariy va amaliy aspektlarini yoritish;

musiqiy sulolalar tipologiyasini vaqt, makon va borliq kategoriyalari asosida tahlil qilish;

musiqiy sulola turlarini belgilashda avlod kengligi, avlodlararo munosabatlar, kasbiy ixtisosligi va yo'nalishi (ijod, ijro va izlanishda), ta'lim-tarbiya modeli va strategiyasi, musiqiy faoliyat davomiyligi kabi *ichki*, hamda, sulola avlodlari yashab faoliyat olib borgan davrning (madaniy, tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy tavsifi, ijtimoiy vorislik an'analari) ta'siri kabi *tashqi* omillarni tahlil qilish;

¹²Швейцер А. Иоганн Себастьян Бах – М.: «Классика-XXI». 2011. – 835 с.; Зайцева Л. Династия Куперенов. Фигуры и факты. // Вестник музыкальной науки. №1(19) 2018; Помозанский А. Лядовы и Помозанские –музыкальная семья. – С.Пб.: «Политехника сервис» 2014. – 279 с.; Косимов Р. Тошкент мақомлари хусусида // Шашмақом сабоқлари - 2 тўплам. – Т., 2005 – Б.96-101; Джумаев А. “Традиционное” и “инновационное” в исполнительском искусстве и концепции Бухарского Шашмакома ўзбекского музыканта Ари Бабабханова // Proceedings of the IV International musicological symposium " space od Mugham" – March 12-14,2015, Baku, Azerbaijan. – P.173.

musiqiy sulolalar borliq kategoriyasi sifatida reprezentativ namunalar tahlili orqali yoritib, musiqiy sulolaviylik fenomenining maxsus va umumiy hayotiylik mezonlarini aniqlash;

O‘zbekiston musiqa san’ati taraqqiyotida sulolaviylik an’alarini ochish, o‘tmish va zamonaviy ijodiyot kesimidagi tutgan o‘rni va mavqeini belgilash, musiqiy sulolaviylik fenomenini ijod ijro va ilmiy izlanishdagi sara va yorqin misollari orqali ochib berish;

musiqiy sulolalar faoliyatini «jamoaviy xotira» ko‘rsatkichi (sulolalar vakillarining alohida va tarixiy bosqich mobaynida to‘plangan umumiy sarhisob faoliyati va hissasi) sifatida baholab, sulolaviylik fenomenini Jahon va O‘zbekiston musiqa madaniyati taraqqiyotida tutgan o‘rni va mavqeini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti Jahon musiqa madaniyati taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shgan zabardast musiqiy sulolalarning faoliyatidir.

Tadqiqotning predmeti o‘rnida musiqiy sulolaviylik fenomenining tipologiyasi, mazmun va mohiyati tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun sifat va son ko‘rsatkichlarga asoslangan keng tahlil usullardan foydalanildi. Sifat miqdoriga sulola muammosini ilmda o‘rganishga qaratilgan metodologik va ilmiy adabiyotlar, ayrim maqolalar, shuningdek, musiqiy sulolalarni ijodiy faoliyati bilan bevosita bog‘liq bibliografik, tarixiy manbalar, maxsus ilmiy nashrlar o‘rganilgan. Shuningdek, musiqiy sulolaga oid uslubiy tushuncha va atamalar apparatini shakllantirish, Jahon musiqa san’ati tarixida butkul sulola hamda uning alohida namoyandalar o‘rni, mavqeyi va mohiyatini ochib berish maqsad qilingan.

Son miqdoriga asoslangan tahlil uslubi – musiqiy sulolalar faoliyatini Jahon musiqa madaniyati tarixidagi ko‘rsatkich darajasiga qarab o‘rganildi (sulolalar tipologiyasi, kategoriyalari va turlari). Dissertatsiyada musiqiy sulolalar shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari va empirik fundamental metodologik tadqiq etish usuliga asoslanadi. O‘zga sohalarda to‘plangan uslubiy va axborot bazasi musiqiy sulolalarni tadqiq qilishda, asosiy mezonlarni shakllantirishda qiyosiy asos bo‘ldi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

zamonaviy san’atda musiqiy sulolaviylik fenomenining ijtimoiy-madaniy, genetik, kasbiy va dinamik o‘zgaruvchan tavsifi mavjudligi, madaniyat tarixida musiqiy an’alar saqlovchi va translyatsion o‘ringa egaligi hamda unga shaxsiy va jamoaviy samaradorlik omillari ta’sir ko‘rsatishi musiqashunoslik nuqtai nazaridan asoslab berilgan;

musiqiy sulolalar faoliyati ta’lim strategiyasining o‘ziga xos ko‘rinishini shakllantirishda turli davr va madaniyatlar ijrochi va kompozitorlar (Baxlar, Kuperenlar, Shambonerlar va boshqalar) sozanda va bastakorlar (Jalilovlar, Rajabiylar, Zokirovlar va boshqalar) avlodi ustuvor omil bo‘lganligi hamda ular musiqa san’atida katta davr, kontseptual yo‘nalishlar, ijodiy maktab va ijrochilik uslublarini yuzaga keltirgani dallilangan;

musiqiy sulolaviylik fenomening strukturaviy va funksional tipologiyasi hamda “vaqt”, “makon” va “borliq” kategoriyalari mavjudligi, musiqa san’atining

tarixiy-nazariy va ijodiy jarayonlarini qamrab olgan interdistsiplinar tavsifining majmuaviy, tizimli, integrativ mohiyatga egaligi ochib berilgan;

musiqiy sulolaviylikda vorislikning avlodlar tarkibi va kengligiga asoslangan gorizontol, oilaviy munosabatlarning ichki tavsifi, ta'lim darajasi va musiqiy ixtisosligini qamrab olgan vertikal va aralash turdagi munosabati, ijodiy bardavomligini belgilashda individual (subektiv) va ijtimoiy (obektiv) omillarning o'zaro bog'liqligi aniqlangan;

musiqiy sulolalarning tarixiy bardavomligiga disfunktsional tashqi omillarning ijodiy va kasbiy distruktivlik kabi alomatlariga qaramay davom ettirib kelinayotgani, oilaviy ta'lim qadriyatlarini birligi, ijodkorlik borasidagi an'ana va innovatsion o'zgarishlarning uyg'unligi kabilar ta'sir ko'rsatishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Jahonda tanilgan va izchil faoliyat olib borgan atoqli musiqiy sulolalarning kelib chiqishi va faoliyat yuritishining nazariy, tarixiy omillari asoslab berilgan;

musiqiy sulolalarning faoliyati vaqt, makon va borliq kesimida tadqiq qilinib, tipologiyaning asosiy kategoriyalari sifatida ochib berilgan;

ijtimoiy-madaniy fenomen o'rnida musiqiy sulolalarning oilaviy ta'lim-tarbiya modeli va strategiyasini o'rni va ahamiyati asoslab berilgan;

Jahon musiqa madaniyati taraqqiyotida musiqiy sulolalar tutgan muhim o'rni va ilg'or ahamiyati isbotlangan;

musiqiy sulolaviylik, pedagogika, madaniyatshunoslik, musiqiy tarbiya masalalari bilan bog'liq fanlar tarkibida, jumladan, Oliy va o'rta maxsus musiqa o'quv yurtlarining Jahon musiqa san'ati va madaniyatini o'rganishda muhim adabiyot manbai bo'laolishi, shuningdek, musiqa ijodkorlari faoliyatini atroflicha o'rganishda tarixiy va nazariy ma'lumotlar o'rnida xizmat qilishi bilan aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tarixiy-tanqidiy va nazariy yondashuvlar qo'llanilganligi, ilmiy va uslubiy to'plamlar, anjumanlar, malaka oshirish jarayoni, seminarlardagi chiqishlarni ochiq va foydalanish mumkinligi, tadqiqot xulosalari va tavsiyalari amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Musiqiy sulola fenomeni uning tipologiyasini baholash va tahlil qilishda, mohiyati va mazmunini ochishda zamonaviy musiqashunoslik, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik va falsafaning ilmiy tadqiqot usullari asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ilk bor musiqiy sulolaviylik fenomeni Jahon musiqa madaniyati kesimida o'rganilganligini bilan izohlanadi. Musiqiy sulolalarning reprezentativ tahlillari misolida keng tarixiy davr mobaynida yuzaga kelgan oilaviy musiqiy ta'lim modellari, ularni yuzaga kelishini ta'minlovchi ichki va tashqi omillari, sulolalar tipologiyasi, dunyo va o'zbek musiqa madaniyati rivojiga katta ulushlarini qo'shganliklari aniqlandi. Jahon musiqa san'ati tarixi, bugungi kuni va kelajagi, musiqiy pedagogika va psixologiya, irsiyat masalalari bilan shug'ullanuvchi sohalarni yangi tamoyillar asosida tadqiq qilinishiga xizmat qiladi. O'zligimizni anglash, komil insonni tarbiyalash kabi muhim ma'naviy-

ma'rifiy masalalarni ijobiy hal etish jarayonida ham alohida ahamiyat kasb etishi bilan e'tiborlidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati chiqarilgan nazariy xulosalar o'rta va Oliy musiqa ta'lim muassasalarida chet el musiqasini o'rganishda, xususan, «Jahon musiqasi tarixi», «O'zbekiston musiqa madaniyati» fanlariga doir darslik va qo'llanmalar yaratilishiga, shuningdek, «Jahon musiqa madaniyati», «Madaniyatshunoslik», «Musiqiy pedagogika» kabi tarixiy va amaliy fanlarning yanada takomillashuviga, G'arbiy Yevropa va Sharq ijodiy faoliyati va merosini ommaviy axborot vositalarida targ'ib etish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: «Musiqiy sulolaviylik fenomeni: tipologiyasi, mazmun va mohiyati» tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

zamonaviy san'atda musiqiy sulolaviylik fenomenining ijtimoiy-madaniy, genetik, kasbiy va dinamik o'zgaruvchan tavsifi mavjudligi, madaniyat tarixida musiqiy an'analar saqlovchi va translyatsion o'ringa egaligi hamda unga shaxsiy va jamoaviy samaradorlik omillari ta'sir ko'rsatishi O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining "Musiqashunoslar bilan uchrashuv" tadbiri doirasida o'tkazilgan yig'ilishida foydalanilgan (O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2021-yil 24-maydagi 01-04/66-106-son ma'lumotnomasi). Mazkur uchrashuv davomida tadbir ishtirokchilari musiqiy sulolaviylik fenomeni o'rganishilishi borasida o'z tasavvurlarni kengaytirib yangi ma'lumotlar olishdi;

musiqiy sulolalar faoliyati ta'lim strategiyasining o'ziga xos ko'rinishini shakllantirishda turli davr va madaniyatlar ijrochi va kompozitorlar (Baxlar, Kuperenlar, Shambonerlar va boshqalar) sozanda va bastakorlar (Jalilovlar, Rajabiylar, Zokirovlar va boshqalar) avlodi ustuvor omil bo'lganligi hamda ular musiqa san'atida katta davr, kontseptual yo'nalishlar, ijodiy maktab va ijrochilik uslublarini yuzaga keltirgani O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining "Musiqashunoslar bilan uchrashuv" tadbiri doirasida o'tkazilgan yig'ilishida foydalanilgan (O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2021-yil 24-maydagi 01-04/66-106-son ma'lumotnomasi). Mazkur uchrashuv davomida tadbir ishtirokchilari musiqiy sulolaviylik fenomeni o'rganishilishi borasida o'z tasavvurlarni kengaytirib yangi ma'lumotlar olishdi;

musiqiy sulolaviylik fenomenining strukturaviy va funksional tipologiyasi hamda "vaqt", "makon" va "borliq" kategoriyalari mavjudligi, musiqa san'atining tarixiy-nazariy va ijodiy jarayonlarini qamrab olgan interdistsiplinar tavsifining majmuaviy, tizimli, integrativ mohiyatga egaligi «Jahon musiqa tarixi» nomli o'quv qo'llanmaning «I.S.Bax ijodi» deb nomlangan bobidan o'rin oldi (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017-yil 28-iyundagi 434-son buyrug'i). Natijada talabalar G'arbiy Yevropaning yirik musiqiy sulolalari haqida yangi ma'lumotlarga ega bo'lgan;

musiqiy sulolaviylikda vorislikning avlodlar tarkibi va kengligiga asoslangan gorizontol, oilaviy munosabatlarning ichki tavsifi, ta'lim darajasi va musiqiy ixtisosligini qamrab olgan vertikal va aralash turdagi munosabati, ijodiy

bardavomligini belgilashda individual (sub'ektiv) va ijtimoiy (ob'ektiv) omillarning o'zaro bog'liqligi O'zbekiston teleradiokompaniyasi "Mahalla" telekanalining "Retro shlyager" ko'rsatuvi stsenariysida foydalanildi. ("Mahalla" davlat unitar korxonasi 2021 yil 19-apreldagi 01-18-222-son ma'lumotnomasi). Natijada tomoshabinlar O'zbekiston musiqiy sulolalari faoliyati haqida keng tasavvur hosil qilishdi;

musiqiy sulolalarning tarixiy bardavomligiga disfunktsional tashqi omillarning ijodiy va kasbiy destruktivlik kabi alomatlarga qaramay davom ettirib kelinayotgani, oilaviy ta'lim qadriyatlarini birligi, ijodkorlik borasidagi an'ana va innovatsion o'zgarishlarning uyg'unligi kabilar ta'sir ko'rsatishi O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston teleradiokanali» davlat unitar korxonasi «Notadagi taqdir» radio eshittirishining dasturida foydalanildi. (O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston teleradiokanali» davlat unitar korxonasi 2022-yil 15-fevraldagi O'z/Rv-03-22-son ma'lumotnomasi). Natijada tinglovchilar fransuz klavesin maktabining taniqli namoyandasi F. Kuperen sulolasining ijodiy merosi bo'yicha yangi ma'lumotlarni olish imkonini yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 9 ta xalqaro va 10 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 34 ta maqola chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 12 ta maqola respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, to'rtta bob, Xulosa, Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 218 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirishda tadqiqot masalalari shakllantirilib, tanlangan mavzu va uning hozirgi zamon san'atshunoslik ilm-fani taraqqiyotida dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Birinchi bob «**Musiqiy sulolaviylik fenomenini o'rganilishining konseptual asoslari**» deb nomlanib uch fasl asosida muammoning tadqiq etilishiga doir masalalarni yoritadi. «**Musiqiy sulolaviylik muammosini o'rganish aspektlari**» (§1.1.) nomli ilk faslda sulolaviylik fenomenini fanlararo kesimida o'rganilishi va mazkur masala bilan bog'liq qirralar ochib berilgan.

Sulolaviylik – betakror fenomen sifatida qarindoshlik rishtalari bilan bog‘liq bo‘lgan bir necha guruh, avlod vakillarini uzluksiz ravishda ma‘lum muddat, tarixiy davr mobaynida musiqa san‘atida davom ettirib kelinayotgan yorqin ijodiy jarayon misolida ko‘z oldimizda namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida musiqiy sulolaviylik fenomeni turli madaniyatlarda milliy qadriyatlar tizimini shakllanishi va rivojida alohida o‘rin tutib kelgan. Xususan, Yevropa va Sharq musiqa san‘ati tarixiga katta ulushini qo‘shgan qator taniqli musiqiy sulolalar o‘z faoliyati bilan mahalliy san‘atda katta davr, konseptual yo‘nalish, butun bir mamlakat ijodiy maktabi va ijrochilik uslublarining yuzaga kelishini ta‘minlagan. Olmoniyada – Baxlar sulolasi, Fransiyada – Kuperenlar, Shambonyerlar, Avstriyada – Motsartlar, Shtrauslar, Italiyada – Skarlattilar, Ispaniyada – Kabesonlar, Chexiyada – Bendalar va Briksilar, Bolgariyada – Pipkovlar, Rossiyada – Rubinshteynlar, Lyadovlar, Shostakovichlar va Stravinskiylar, Ozarbayjonda – Hojibekovlar, Armanistonda – Xachaturyanlar sulolalari, O‘zbekistonda esa – Rajabiyalar, Zokirovlar, Jalilovlar sulolalari va shular kabi qator taniqli ijodkorlar sulolalarining sermahsul, sersoha faoliyalari buning yorqin namunalari. Sulola faoliyati vakillarining har biriga bu borada tabiat qonuni bilan in‘om etilgan «musiqiy iste‘dod», oila, avlodlar misolida asrlar davomida musiqiy an‘analarni qay tarzda saqlab kelinishi, yillar davomida o‘zini mustahkam mavqei nafaqat saqlab qolishi, balki rivojlov dinamikasida Jahon musiqa madaniyati taraqqiyotida yorqin o‘rni va ahamiyati bilan belgilanishi alohida e‘tiborga molik. Aynan ijtimoiy-tarixiy hodisa sifatida musiqiy sulolaviylik fenomeni milliy qadriyatlar tizimi shakllanishi va rivojida alohida o‘rin tutib kelmoqda.

O‘zbekiston musiqashunosligida sulolaviylik muammosi bilan bog‘liq n masalalar hanuzgacha yoritilmagan. Uni o‘rganilishi fanlararo kesimida nafaqat san‘atshunoslar, balki keng doiradagi mutaxassislar-psixologlar, tibbiyot xodimlari, fiziologlar, genetiklar, ruhshunoslar va sotsiologlar e‘tiborini o‘ziga jalb qilinishini ham taqozo etdi. Majmuaviy ilmiy-yondashuvlar o‘laroq, sulolaviylik masalasini atroflicha va batafsil yoritishda ma‘lum natijalarga erishish mumkin.

Sulolaviylik faoliyatini tashkil qilish uchun o‘rganilayotgan obyekt quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- Bir avlod ichidan kelib chiqishi (oila, shajara);
- Vorislik asosida rasman zurriyot ketma-ket almashib kelishi va bu borada oilalarni o‘rin almashib, avlodlar davomiyligi ta‘minlanishi;
- Muayyan sulola ma‘lum sohada mashhur bo‘lib nom qozonishi, qadriyatlar kesimida sulola faoliyati jamiyat tomonidan e‘tirof etilishi. Tarix to‘plagan ijodiy, ijroviy, ilmiy va amaliy tajribalarni nafaqat vorislik asosida oila doirasida taqdim etishlari, balki, butun jamiyatga namoyish qilishlarida ham ko‘rishimiz lozim;
- Qarindosh-urug‘lar tomonidan «musiqachi», kasbini davom ettirib, butun avlodlarni **musiqiy sulolalar** bo‘lib shakllanishiga turtki berilishi.

Sulolaviylik fenomeni yuzaga kelishida *ijtimoiy vorislik* ahamiyati ham alohida e‘tiborga molikdir. Ijtimoiy vorislik deganda musiqiy sulolada yillar va

asrlar davomida uzviylikni ta'minlab berish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlar shakllanishi nazarda tutiladi. Zero, musiqachilar oilasida ulg'aygan farzand, ushbu muhit va sharoitda katta bo'lib, san'at olamini ich-ichidan o'rganish, soha qadriyatlari va muammolarini erta tushunib, anglab olish imkoniga ega bo'ladi.

Musiqiy sulolalarning kasbiylik borasida qo'lga kiritgan «muvaffaqiyat darajasi» yosh avlod vakillarini ijodiy harakatini tengdoshlariga nisbatan ancha erta boshlanishiga va tez harakatlar bilan olg'a yurishga undaydi. Sulolaviylik masalasini o'rganishda shunisi ayon bo'ladiki, har bir musiqiy sulola, o'zining ichki kodi, omillar yig'indisi va darajasi, faqat o'ziga xos tarbiya va ta'lim modeli asosida shakl topib rivojlanadi. Avloddan- avlodga o'tib, ko'z qorachig'idek asrab avaylab kelingan turli ko'rinishdagi oilaviy va sulolaviy an'analar, «sir-asrorlari», vakillarining maxsus ish faoliyati yoki ijod turiga moyilligi ko'rsatib, bu borada qobiliyatlarini yorqinroq namoyon etishga zamin yaratib berilgan. Psixogenetika asoschilaridan biri ingliz olimi F.Galton, o'zining iste'dod vorisligiga bag'ishlangan asarida ushbu masalaga ilk bor jamoatchilik e'tiborini qaratib, tarixan iste'dodli, daho insonlarni tug'ilishi va ularni kelib chiqishi uchun zamin yaratgan omil va sabablar, jumladan, vorislikning ahamiyatini ilk bor yoritishga qo'l urgan.

Musiqiy sulolalar faoliyati o'z ichiga katta tarixiy davrni qamrab olishi bois, birgina sulola qadriyatlari, professional kasbiy mezonlari, avlod faoliyatida an'anaviylik va o'sish evolyusiyasini kuzatib teran anglash uchun tadqiqotchi oldida ko'plab masalalarni o'rganish va metodologik yondashuv bilan bog'liq muammolarni tug'diradi. Sulolaviylik fenomenini o'rganish borasida hanuzgacha maxsus metodologik andaza va namunaviy usul ishlab chiqilmagan. Buyuk psixolog B.Ananyev o'z vaqtida qo'llagan biografik uslub hanuzgacha ilmda asosiy tadqiq va tahlil qilish usuli sifatida saqlanib kelmoqda. Unga ko'ra, biografik uslubi (tarjimahol bayonotiga nisbatan keng va majmuaviy ko'rinishga ega) insonning hayotiy yo'li va faoliyati xususida ma'lumotlarni yig'ib tizimlashtirish natijasida tadqiq etiladi. Sulolalarning har bir vakili faoliyati bu borada alohida o'rganib chiqilib, qiyosiy tahlil qilinib, chiqarilgan natijalar zaminida vorislik uchun asos bo'lgan kasbiylik, etik va estetik, axloqiy va sof oilaviy an'ana va qadriyatlari, butun sulolaviylik mezonlari inkishof qilishga imkon beradi.

«An'analar nazariyasi kasbiy sulolalar misolida» nomli ikkinchi faslda (§1.2.) musiqiy sulolaviylikda an'analarni o'rnatilishiga doir ilmiy-nazariy qarashlar tizimi ko'rib chiqiladi. Nemis-ingliz sotsiologi Karl Mangeym (1893-1947) o'zining «Avlodlarni ijtimoiylashtirish nazariyasi»da avlodlarni ketma-ketligi borasida e'tiborga molik, jumladan, musiqiy sulolaviylik fenomenini o'rganish uchun ham muhim fikrni olg'a suradi. Xususan, uning tadqiqotida ilk bor mavzuga taalluqli ilmiy apparat shakllanib, uning tarkibigp uchta asosiy tushunchalar qamrab olingan¹³. Muallif ta'kidlashicha ularga kuydagilar kiradi:

¹³ Социология: теория, история, методология: учебник / под ред. Д.В.Иванова. – СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2019. – С.480.

- «Avlodlarni jamiyatdagi oʻrni» tushunchasi. Har bir avlod oʻz aʼzolarining turli yoshlaridan kelib chiqqan holda jamiyatda turli mavqeyi va nufuzini egallashi bilan tavsiflanadi;
- «Avlodlar birligi» tushunchasi. Avlodlar orasidagi farqlar uning integratsiyasini belgilashga qaratilgan (K.Mangeym fikricha avlodlar birligi, birinchi navbatda, muayyan ijtimoiy birlik ichida bir qator shaxslarning egallagan bir xil darajasidan kelib chiqadi);
- «Avlodlar aloqasi» tushunchasi. Avlodlar oʻrtasidagi munosabatlar bilan tavsiflanadi. K.Mangeym taʼkidlashicha avlodlarning uzluksizligi va oʻzaro bir biriga oʻtkazayotgan taʼsiri nuqtai nazaridan kamida ikki jihatda koʻrib chiqilishi bu borada asoslidir. Biinchisi-muayyan davrning madaniy tarixida avlodlarning ketma-ket oʻzgarishini hisobga olganda vertikal yoki diaxronik tahlil etish. Bunday yondashuv madaniy merosning saqlab kelinishi, uning koʻlami, kashfiyot va yoʻqotishlari, taqdiri, avvalgi avlod boshlagan islohotlarning davom ettirilishi, yoki ularni tanqid qilish kabi qirralarni ochib berishi mumkin. Ikkinchisi esa, gorizontol yoki sinxron tahlil boʻlib, bir vaqt ichida yashayotgan avlodlarni hisobga oladi. Zamonaviylikning oʻziga xos xususiyati-oʻtmish tajribasini xotira sifatida saqlab qolish, yosh avlodning real hayot uchun oʻz ahamiyatini yoʻqotgan anʼanalardan oʻzgartirish sari surʼatlarini jadallashtirishdan iborat. Irsiy avlodlar, jumladan, musiqiy sulolalar ham, oilaning umumiy ajdodidan kelib chiqishini koʻrsatib, oila va sulola avlodlarining aloqalari, avlodlar davomiyligi haqida maʼlum tasavvur yaratadi.

Yaqin oʻtmishgacha jamiyatda irsiyat masalasiga katta eʼtibor berilmagan. Bu esa oʻz navbatida jamoatchilik ahli tomonidan oilaviy arxivlarning deyarli butunlay yoʻqolishi va koʻplab oilalar oʻz avlodi va shajarasini deyarli bilmasligiga olib keldi. Shu bilan birga irsiyat (genealogiya) fani tarixiy manbashunoslikning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Kasbiy sulolalar masalasiga, turli soha vakillarining faoliyatiga bagʻishlangan ilmiy ishlar mavjud. Mazkur tadqiqotlar markazida asosan sulolani kasbiy qiyofasini tashkil qiluvchi mezonlar: mutaxassis davomchilar paydo boʻlishi uchun turki boʻlgan ichki va tashqi omillar, ish jarayoni tashkil qilinishi va uning oʻziga xosligi, ishlab chiqarishning shart-sharoitlari kabi asosiy qirralar tahlil qilinadi. Mutaxassislarning kasbiy faoliyatidagi muvaffaqiyati kasbiy sulolalarning tashkiliy madaniyati (kasbiy muhitni yaratish) mezoni bilan bevosita bogʻliq. Tashkil qilish madaniyatning doimiyligi (bir xilligi), xulq-atvorining yagona modeli, munosabatlarning kollektivlik shakli, oilaviylik, kasb ichida madaniy anʼanalarni bardavomligi va anʼanalar vorisiyligi, kasbiylik borasida yosh mutaxassislarning muvaffaqiyatli faoliyat olib borishlari uchun zamin yaratadi. Sulolalarning kasbga nisbatan qarashlar tizimini belgilashda qoʻyidagi omillar birlamchi boʻlib turadi:

- kasbiy identifikatsiya (musiqiy sulolalar, ijodkorlar sulolasi, bastakorlar sulolasi, xonandalar sulolasi va b.);
- sulola vakillarining katta tarixiy muddat davomida olib borayotgan faoliyati misolida «ijtimoiy kapital» yigʻilishi;

- oila doirasida «ustoz-shogird» an'anasi;
- o'z kasbining nufuzi va uning sulola vakillari tomonidan qadrlanishi kasbiy sulolalar vakillarining tuk faoliyatlari ko'rsatkichi, kasbiy vazifalarni hal qilishda natijalarni samaradorligi sulola avlodlarining kasbiy an'alariga hurmat, qat'iy shart-sharoitlarda vaziyatni ijobiy baholab, kasbiylikni davom ettirish maqsadida hamisha hozirjavoblik ko'rsatish, murakkab va og'ir talablarga hammehnatsevarligi va sadoqati orqali jonbozlik ko'rsatib, sulola olib borgan kasb manfaatlarini himoya qilish borasidagi say-harakatlarini dadilligi;
- maqsadli qadamlar bilan yuqori ko'rsatkichlarga erishish va sulolaning boshqaruv markaziga intilish, uni kasbiylik borasida boshqarishi uchun qarorlar qabul qilib sulola davomiyligini ta'minlash kabi omillar muhim o'rin tutadi.

Bobning uchinchi fasli «**Sulola an'alarida musiqiy qobiliyat va ta'lim tarbiyaning o'рни**» (§1.3) deb nomlanib, musiqiy sulola avlodida oilaviy kasbni davom ettirish uchun birinchi galda musiqiy qobiliyat zarurati masalasi va samarali natijalarni qo'lga kiritishda oilaviy ta'lim tarbiyaning ahamiyati ko'ndalang ko'yilgan. Ma'lumki, ushbu masalani o'rganish uchun jahon ruhshunoslari tomonidan ko'plab tajribalar amalga sinalgan. Rossiyalik olim, san'atshunoslik fanlari doktori, pedagog D.K.Kirnarskayaning «Musiqiy qobiliyat» nomli tadqiqoti, aynan musiqiy qobiliyat bilan bog'liq keng doiradagi masalalarni tahlil etgan. Olima keltirgan ma'lumotlarni o'rganib, tarixiy va ijtimoiy tajribalar asosida chiqargan qimmatli xulosalari, musiqiy qobiliyat va iste'dodning tug'ma va vorislik asosini belgilab berishda e'tiborga molik: «Har bir inson ko'z ilg'amaydigan «daholik chizgisida» turadi: farzandlarini tug'ilishi va tarbiyalanishi asosida u uning avlodining avvaldan dasturlashgan maqsad murodi, sababini – bo'lajak daho tug'ilishiga yaqinlashtiradi. Tabiat in'om etgan iste'dodni rivojlantirish va irsiy ravishda uni kuchaytirishga moyil juftlik topish taqdir yordami va ko'magi bilan amalga oshadi: bir birini izlagan juftliklarda daholikni otilib chiqishi haqida faqat u voqif»¹⁴.

Tarixan bu masala ko'p olimlarni qiziqtirib kelgani ma'lum. 1575 yili ispaniyalik yirik faylasuf va psixolog Xuan Uarte qalamiga mansub «Ilmgga bo'lgan qobiliyatni o'rganish» nomli kitobi nashr etilib, unda muallif «Iste'dod – Yaratganning ilhomi natijasi emas, balki, inson jismoniy tuzilishidan kelib chiqish» degan fikrini ilk bor olg'a suradi. Kitob o'z vaqtida inkvizitsiya tomonidan 1581 yili man qilingan.

Qobiliyat va iste'dodni sinchiklab o'rganishda shuningdek, Charlz Darvinning akasi, ingliz olimi Frensis Galtonning «Iste'dodning vorisiyligi» asarida o'rganishga harakat qilgan¹⁵. Olim fikricha iste'dod tug'ma bo'lib, bu borada irsiylik asosi atrof muhitdan ustunroq bo'lib qobiliyat va iste'dodni kashf etilishida birlamchi ahamiyatga ega. Darhaqiqat, bugunda san'at ahli orasida tug'ma iste'dod va qobiliyat haqida keng tasavvurlar o'rin olib ular asosan irsiyat kodining amalga oshirilishi sifatida qayd qilinmoqda.

¹⁴ Кирнарская Д. Музыкальные способности. – М.: Таланты-XXI век, 2004. - С.495.

¹⁵ Гальтон Ф. Наследственность таланта. Её законы и последствия: Пер. с англ. // Ф.Гальтон. – СПб., 1875. – С.299 .

Shajara masalasi rus olimi Y.A.Filipchenko tomonidan o'rganilgan bo'lib, tajriba Peterburgda yashab ijod qilgan bir qator ijodkor namoyandalari misolida ilk bor tadqiq etilgan¹⁶. Mazkur kuzatuvlar asosida qo'yidagi qiziqarli xulosalar e'lon qilinadi. Xususan, ziyolilar doirasida o'qib ulg'aygan farzandlarning aksariyat foizi yuqori malakali kasb egalari bo'lishi; ular maxsus qobiliyatga ega va yuqori foizli iste'dod sohiblari ekani (olib borilgan ko'rsatkichlarga ko'ra musiqa san'at ahlida 75% - qarindoshlik asosida yuqori va pastga harakatlanuvchi ko'rsatkichlar joy oladi); ayrim ruhiy kasalliklarga duch bo'lish miqdori shunday oilalarda eng katta foizini tashkil etishi ham qayd etilgan.

Musiqa san'atiga bo'lgan qobiliyat uzluksiz ravishda bir oila, avlod misolida in'om etilishi irsiyotchilar va psixologlarni qiziqtirib kelgan. Daholik va uning bardavomligi masalasini o'rganishda buyuk rus genetik olim V.P.Efroimson ko'p yillar davomida olib borgan tadqiqoti ham e'tiborga loyiq¹⁷. Muallifning «Daholikning irsiyligi» («Genetika genialnosti») nomli kitobida jahonning turli sohalarda daholik darajasiga erishgan shaxslar, ularni tarjimai holi, hayoti va faoliyatini ilman o'rganilib tadqiq etilishi asosida quyidagi ko'rinishda xulosalar beriladi. Ya'ni, tug'ilgan «potensial moyil daholar» ichida faqat ayrimlargina «daholik darajasida rivojlanadi». «Rivojlangan daholar» qatorida esa faqat sanoqlilari «asl daholikka» aylana olishi mumkin. Insoniyat tarixida faqat 400ta daholar yetilib chiqqani buning isbotidir. Musiqiy daholikka loyiq topilgan buyuk kompozitorlar ham shular qatorida munosib o'rin olgan.

Ikkinchi bob «**Musiqiy sulolalar tipologiyasi**» masalasiga bag'ishlangan bo'lib musiqiy sulolaviylik fenomeni izchil tahlil qilingan.

Musiqiy sulolaviy fenomeni ilman o'rganilmagan sohalardan bo'lgani bois, musiqiy sulolaviylik tipologiyasini shakllantirishda, biz, bugungi kunda o'zga soha mutaxassislari tomonidan taklif qilingan eksperimental tajribaviy yondashuv va tahlillariga tayanib¹⁸ musiqiy ijodkorlarni o'rganishda muqobil namuna shakllantirishga harakat qildik.

Jahon musiqa madaniyatida tanilgan yorqin musiqiy sulolalar faoliyati, o'zlarini katta davr masofasida musiqa san'atida qo'lga kiritgan yutuqlari, jamoaviy hissasi ma'lum tarixiy, ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va g'oyaviy o'zgarib kechayotgan jarayonlar kesimidagi faoliyati, rivoji va o'rni bilan tavsiflanadi. Shu bois, musiqiy sulolaviylikni tadqiq qilishda *vaqt*, *makon* va *borliq* kabi ilmiy kategoriyalar asosida ko'rib chiqiladi. Bobning birinchi fasli «**Musiqiy sulolaviylikni o'rganishda vaqt kategoriyasi**» deb nomlangan (§2.1), ikkinchi fasli «**Musiqiy sulolaviylikni o'rganishda makon kategoriyasi**» (§2.2) deb berilgan.

Vaqt kategoriyasi o'z ichiga musiqiy sulola yillar davomida to'plagan ish tajribasi, sulolaning faoliyat davomiyligi (avlodlar soni), tarkibi (oilalar soni, kengligi) bilan aniqlanadi.

¹⁶Филипченко Ю. Интеллигенция и таланты// Известия Бюро по евгенике.1925 №3. – С. 83-101.

¹⁷Эфроимсон В. Генетика гениальности. – М.:”Время знаний” – 2001-.С.379.

¹⁸Дидук И. Количественные и качественные основы типологии педагогических династий //Ж. “Инновационные проекты и программы в образовании” – №2 .2019. – С 51-56

Makon kategoriyasi – musiqiy sulolalarni tarixiy jug‘rofiy hudud(mamlakat, voha, shahar, qishloq va b.)ga moyilligini belgilab, o‘z navbatida ularning ma’lum madaniyat va milliy san’at kesimida ichida ro‘y bergan transformatsion jarayonlarni – tarixiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ko‘rinishda yoritib berish imkonini beradi. Vaqt va makon kategoriyalari hamisha o‘zgarib boradi va to‘xtamay rivojlanayotgan ko‘rinishda hodisa va holatlarni transformatsion jarayonlarda ko‘zga tashlanadi.

Jahon musiqa san’atida tanilgan sulolalar faoliyati, har biri alohida o‘zini son va sifat ko‘rsatkichlari, yillar davomida to‘plagan faoliyat tajribasi va tarkibi bilan izohlanadi. Sulolalarni bu borada yillar, yuz yillik va bir necha asrlar davomida to‘plagan umumiy faoliyat tajribasi, butkul sulolalarning musiqa faoliyatiga bag‘ishlagan majmuaviy umumiy faoliyat yillarni o‘zida mujassam etadi. Bu borada biz ijodiy faoliyatning davomiyligi haqida fikr yuritishimiz mumkin:

- ilk sulola – 50 yilga qadar;
- yosh sulola – 50-100 yil;
- navqiron sulola – 101-150 yil;
- katta sulola – 151-200 yil;
- yetuk sulola – 201-350 yil;
- keksa sulola – 351yildan ziyod;
- qadimiy sulola – 1000 yil.

Dissertatsiyaning ushbu faslida representativ misollar o‘rnida Jahon musiqa san’atida o‘zining yorqin faoliyati bilan e’tibor qozongan turli kenglikdagi musiqiy sulolalar avlodi, xususan yirik sulolalar orasida – Baxlar (Olmoniya), Kuperenlar (Fransiya), ikki avlod ko‘rinishidagi Pirogovlar (Rossiya), Shtrauslar (Avstriya), an’anaviy uch avlodli musiqiy sulolalar – Stamitslar, Bendalar (Chexiya), aralash turdagilari Lyadovlar-Pomazanskiylar, Rastropovich-Fedotovlar (Rossiya), tahlil qilindi. Buning asosida qo‘yidagi xulosalarga kelindi:

Sulolalarning kasbiylik faoliyati uning avlodlari almashuvi asosida namoyon bo‘lar ekan, bu borada avlodlar soni ham sulolaviylikni belgilashda muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Xususan, musiqiy sulolaviylik fenomenini o‘rganishda avlodlar soni (ya’ni, yagona bir qarindoshiga ega bo‘lgan insonlar birligi nazarda tutiladi) musiqiy sulolani tasnifida biz kuyidagi ko‘rinishlarga ajratamiz:

- ikki avlodli – endigina shakllanayotgan ilk sulolalar bo‘lib, soniga keng avlod vakillarini qamrab olgan ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Shunday sulolalarni shakllanishi yoki aksincha shakl topmay “musiqiy oila” doirasida qolib ketish ehtimoli mavjud. Ushbu bosqichda sulolaviylikning kasbiy yo‘nalishi tanlanib, har bir sulolaga xos bo‘lgan vorislik an’analari, ichki muhit va kasbga yo‘naltirilgan oilaviy iqlim shakllanadi;

- uch avlodli – bosqichda musiqiy sulola tiklanayotgan jarayonda bo‘ladi;
- to‘rt va undan ortiq avlodlari – dinamik dadil rivoj topayotgan musiqiy sulola bo‘lib, o‘z ta’sirini tashqariga, madaniy-tarixiy muhitga o‘tkazadi. Ya’ni, musiqiy sulola avlodlari soni qanchalik katta bo‘lsa, ularning ijodiy faoliyat davomiyligi (staji) ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan yana bir muhim narsani belgilash lozim. Musiqiy sulolalarni tashkil qilgan avlod tarkibida

uning vakillarini soni avlod soniga nisbatan kengroq bo'lishi mumkin. Buning hisobiga avlodlar soniga katta bo'lmasada, biroq musiqiy faoliyat davomiyligi kattadir. Shunga asoslanib sulolalar kam sonli (10 yaqin vakili bor); o'rta sonli (11-20 vakili bor); ko'p sonli (21-30 vakili bor); hamda katta sonli (31 dan ortiq vakili bor) ko'rinishda kelishi mumkin.

Sulolalarning avlod kesimida o'rganish (tarixiy muddatning kengligini hisobga olgan holda) uning tarixiy «chuqurligini» tadqiq qilishda oson bo'lmaydi. Agar uch avlod bir asr kesimida ko'rib chiqish imkonini bersa, undan ortiq avlodlar tarkibi biografik va rasmiy va tarixiy manbalarni kamligi yoki yo'qligi (yetib kelmagani) masalani atroflicha o'rganib chiqishda muammo yaratadi. Sulolaviylikni tashkil qilishda uch avlod bo'lishi asosiy mezon sanaladi. Shu bois, sulolalar masalasi bilan shug'ullangan zamondosh tadqiqotchilar tomonidan uch avlodli sulolalarni aniqlashda, bir yarim asrlik vaqt kesimida faoliyatini olib borayotgan (ayni damda XIX asr – XXI birinchi choragi bilan chegaralangan muddat) sulolalarni ijodiy faolligi e'tibor markaziga tushadi. Biroq, ikki avlod misolida ham tom ma'noda sulolaviylikka da'vogarlik qiluvchi misollar kam emas. Masalan, ikki avlod (shakllanayotgan sulola) an'anaviy uch avlodli sulolaviylik tushunchasini javob bermasada, biroq, uning kengligi (sulolal namoyandalarining asosan ikkinchi avlodidafarzandlar soni kengligi, shuningdek, har bir vakili nafaqat mahalliy mamlakat, balki Jahon musiqa madaniyati rivojiga qo'shgan alohida va sarhisob ulushlari bunday musiqiy oilalarni sulolalar qatorida bayd etilishiga tuliq asos beradi.

Ma'lumki musiqiy sulolaviylik fenomeni eng avvalo muayyan mamlakat, davlat, millatga mansub oila vakillarining jamoaviy faoliyatidir. Bu borada sulolalarni tadqiq qilishdagi birinchi vazifa ularni qaysi davr, mamlakat, milliy bastakorlik, kompozitorlik yoki ijrochilik maktabi identifikatsiyasi ekanligiyei aniqlash lozim. Bu borada vaqt bosqichi, tarixiy kesimda jamiyatda shakllangan informatsion, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, muhimi madaniy taraqqiyot pallasini o'zida aks etib makon kategoriyasi ichida o'zini namoyon qiladi. Sulola avlodlarining kasbiy vorislik, ustozshogird an'alarini shakllantirish va davom davom ettirishida, mehnat faoliyatini samaradorligini oshirish, sulola vakillariga yordam berish va quvvatlash kabi dastlabki bosqichda hududiy yaqinlik, bir yagona makonda, jug'rofiy hududlarda yashab istiqomat qilish katta ahamiyat kasb etadi. Oila, avlod ichida ichki aloqa va rishtalarni mustahkamlanishi kezi kelganda yoyilib ketishi ham mumkin.

Musiqiy sulolaviylikni tadqiq qilishda sulola avlodlari va vakillarini yashagan va ijodiy faolligini oshirgan makonning xususiyatlarini yoritish muhim. Zero, madaniy-ijtimoiy, tarixiy, ma'naviy va san'at sohasida amalga oshayotgan tarixiy o'zgaruvchan jarayonlar (industrializatsiya, urbanizatsiya va b.) bilan uzviy bog'liqlikdagina alohida olingan har bir sulolaning tarbiya modeli, ta'lim yo'nalishi, o'ziga xosligini ta'minlovchi ichki va tashqi sabablarini xolisona baholashga zamin yaratiladi.

Musiqiy sulolalarning hayotiy yo'lini belgilashda individual (subyektiv) va ijtimoiy (obyektiv) omillarning o'zaro bog'liqligi muhim. Ushbu vazifa insonni qurshab turgan tashqi omillar bir tomondan, sulola hayotiy yo'li va egallagan pozitsiyasi va xulq-atvor strategiyasi ikkinchi tomondan sinxron va qiyosiy tahlillari

orqali amalga oshiriladi. O'z navbatida har bir musiqiy sulolaning hayotiy yo'li, pozitsiyasi, va xulq-atvor strategiyasi insonning hamisha o'zgarib borayotgan ijtimoiy tizim ichidagi harakati bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, sulola avlod vakillarini baholash mezonlari, ijtimoiy jarayonlarning o'zgarishlari, voqeliklariga nisbatan javoban shakllanayotgan hissiyotlar, munosabat doirasini yoritish darkor. Tashqi va ichki omillarni birlashuvi negizida har bir sulolaning kasbiy o'sish va unga xos bo'lgan yo'li shakllanadi. Dissertatsiya matnida reprezentativ misol o'rnida G'arbiy Yevropa mamlakatlarning tarixiy-ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan an'analarni o'z ijodiy faoliyatida mujassam qilgan Shampion-Shambonyerlar (Fransiya) sulolasi tahlil qilinib, saroy musiqa an'analari va ularni sulolaning kasbiylik borasida yo'nalishlari doirasini belgilanishi ochib berilgan. Xususan, fransuz barokko davri musiqiy sulolasi bo'lmish Shambonyerlarning barcha avlodi, o'z faoliyatini saroyda, qirol xizmatida bajarganlar. Musiqiy sulolaning ijodiy faolligi eng avvalo saroy talablari, uning ichki siyosati, mavkuraviy o'rinlari, etik va estetik talabalari bilan bog'liq bo'lib sozandalikdan boshlagan bobosi, so'ng davom ettirgan otasi va nihoyat mohir sozandaga aylangan nabirasi misolida iste'dodi bilan yarqiradi. Oxirgisi kompozitor sifatida saroy musiqa janrlari-klavesin musiqasining muhim uslubiy ijro an'analarni yaratishda bosh-qosh bo'ldi.

Rossiya mamlakati misolida «makon» kategoriyasi XVIII asr ikkinchi yarmi – XIX asr rus tarixining ijtimoiy-madaniy hayotida ro'y bergan olamshumul hodisalari, jumladan dvoryanlarning musiqiy ta'lim tizimining ommaviylashgan tizimi asosida tahlil qilinadi. Rossiyada musiqa san'atiga oila va ta'lim maskanlarida bo'lgan e'tibor, eng avvalo insonning ichki sifatlarni shakllanishiga qaratilgan. Musiqa insonning shaxsiy sifatlarini rivojlanishiga sabab bo'lgan kuchli omil sanalib Rossiya jamiyatining ijtimoiy boshqaruvi va ijtimoiy tabaqadoshlik qatlamini saqlab qolishga xizmat qilgan. Oliy ta'lim tizimi tarkibida o'rin olgan musiqa san'ati umumiy ta'lim va tarbiyaning ajralmas qismiga aylangan holda dvoryan madaniyatining talablariga binoan inson rivoji va kamolotining muhim ustuvor yo'nalishiga namoyon qildi. XIX asrning birinchi yarmi Rossiya madaniyatida an'analarni shakllanishi pallasiga bo'lib, kelgusi musiqiy ta'lim tizimining poydevorini tashkil qildi. Rus dvoryanlari tomonidan olingan bilimlar, oilaviy sharoitda keng rivoj olgan havaskorlik musiqiy ijod bilan mustahkamlanib, kasbiylik borasida muhim qadam qo'yadi.

Ruc musiqiy sulolalarini yoritishda dastlabki qadam oilaviy ta'lim tizimidan olingani inobatga olib, mazkur xronologik masofa XVIII asrdan boshlab to XX asr boshlariga qadar jadal rivoj topgani bilan e'tiborlidir. Oilaviy, asosan rus dvoryan ta'lim tizimida shakllanib to'plangan musiqiy meros nafaqat davrning madaniy-ta'lim imkoniyatlarini ko'rsatkichiga aylandi, balki, yirik ko'rinishda mamlakatda umumiy musiqiy ta'limning professional cho'qqilar sari rivojiga kuch berib, butun jamiyatning ma'naviy yuksalishiga sabab bo'ldi. Dvoryanlar oilalaridan musiqa bilan jiddiy shug'ullanishga qaror qilgan shaxslar, so'ng ularni nasli, yangi ijtimoiy tarixiy shart-sharoitlarda yuzaga kelgan musiqiy oilaviy birliklar Rossiyada musiqiy sulolaviylik fenomeni yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Dissertatsiyada dvoryan avlodi-Solomirskiylar, kompozitorlar sulolasi – Cherepninlar tahlil qilinib ushbu bo'lim yuzasidan kuydagi xulosalar berildi:

- tashqi omillar musiqiy sulolalarning madaniy tarixiy sharoitlarni o'zida aks etgan holda musiqiy sulolalar faoliyatini mazmun bilan boyitadi va samaradorligini oshishi yoki aksincha so'nishida muhim o'rin tutadi;
- tashqi omillarning salbiy alomatlariga qaramay davom ettirilayotgan musiqiy sulolalarni tarixiy bardavomligi oilaviy ta'lim strategiyasini o'z ichiga olgan qadriyatlar mezoni, an'ana va axloq-tarbiya sifatini yutuqlari haqida fikr yuritishga asos bo'ladi;
- har bir avlodning son kasbiylik borasida qo'shgan ulushi, son ko'rsatkichi shu bilan birga musiqiy sulolaning jamoaviy fondini sifatli tavsiflar bilan boyitadi;
- musiqiy sulolaning kasbiy va oilaviy qadriyatlari mustahkamlanadi yoki aksincha yo'qolib ketadi;
- tashqi omillar tarixiy muddat ichida musiqiy sulolalarni o'z kasbiga sadoqat va sidqidillik ko'rsatish belgisi, insonparvarlik va go'zallik oshnolik bo'lgan tajribasi;
- yuqori axloqiy tizim egaligi va buni oila misolida markazlanishi bilan faoliyat olib borishda, shu bilan birga yangi bosqichda innovatsion o'zgarishlarni o'ziga singitib qabul qilish va sulola davomiyligini ta'minlanishida ko'rinadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Musiqiy sulolalar – borliq kategoriyasi obyekti sifatida**» deb nomlangan. Mazkur bobda borliq kategoriyasi avvalo oilaviy rishtalarning tavsifi (qarindoshlik va kasbiy), tanlab olingan mutaxassislik yo'nalishi, ta'lim darajasi, sifati va ma'lum davrning madaniy-tarixiy kesimidagi o'rni va mavqei bilan aniqlanadi.

Borliq kategoriyasi – ikki ma'noda qo'llanib biri – yashash tarzi, hayot ko'rishi bo'lsa, ikkinchisi jamiyat hayotining moddiy shart-sharoitlarining umumiligi bilan tavsiflanadi. Har kunli turmush hayot va kasbiy borliq bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan hodisa sifatida musiqiy sulolalar misolida namoyon bo'lar ekan ular tomonidan bajargan har kunlik vazifalari, amalga oshirgan an'anaviy, takrorlanuvchi, davomiy ishlari orqali ko'zga tashlanadi. Shuning negizida har bir oilani o'ziga, faqat unga xos bo'lgan muloqot va oilaviy aloqalar tavsifi, oilaviy ta'limi yuzaga keladi.

Bobning «**Gorizantal, vertikal va aralash turdagi munosabatlar**» (§3.1) deb nomlangan faslda musiqiy sulolar, avlodlar va oila doirasida tarixan shakllangan munosabat shakllari tahlil qilinadi. Dissertatsiyada *vertikal*, *gorizantal* va *aralash* shakllarida tavsifi o'rin olgan. Xususan, *vertikal* munosabatlar otadan to'g'ridan to'ri nasl davomchilariga – o'g'liga, nabira va keyingi avlod vakillari misolida davom ettirilsa, *gorizantal* munosabatlar bir muncha uzoqlashgan, ko'pincha bir avlod vakillari orasida uzoq qarindoshlar mavjudligi, ular bevosita, ya'ni to'g'ridan to'ri nasl davomchilari bo'lmasligi ham mumkin. Bu borada er va xotin juftligi ham bir tomondan turishi, jiyanlar orasidagi munosabat ikkinchi tomondan taqqoslanishi mumkin. O'z navbatida gorizantal munosabatlar shakl ichida bevosita vertikal namunalarini, ya'ni ota-ona-farzandlari – ularning nabiralari orasidagi aloqalar mavjud bo'lishini inkor qilmaydi. Dissertatsiyada matnida Motsartlar, Betxovenlar sulolalari, «musiqiy oilalar» tarzidagi qolgan

Gaydnlar, Vivaldi, Bramslar va Bruknerlarning avlodlari faoliyatlariga e'tibor qaratilgan.

Vertikal ko'rinishda ota-ona va farzandlarning munosabatlariga tayanib ichiki oilaviy rishtalarni ustunligi bilan ajralib turadi. *Aralash* shakldagi musiqiy sulolalar gorizontaal va vertikal munosabatlardan kelib chiqib, ichida tarmoqlashgan ko'rinishni namoyon qiladi. Oilaviy munosabatlar bir necha avlod vakillarini orasidagi uzoq va yaqin qarindoshlar o'rtasida qo'riladi. Ular turli hududlarda istiqomat qilishlari, tarkib bo'yicha katta va uzoq faoliyat davomiligi bilan tavsiflangan. Tashqi omillar musiqiy sulolalarni munosabatlarni mazmun bilan boyitadi va ma'lum ma'noda sulolani darajasi, shu vaqtning o'zida madaniy-tarixiy sharoitini o'zida aks etadi.

Bu borada dissertatsiyada Neapol kompozitorlik maktabi yorqin vakillari-Skarlattilar sulolasi, Chexiya madaniyatining go'llatgan Briksilar yirik avlodi, Rossiya kompozitorlik va ijrochilik maktabining yorqin vakillari – Shostakovichlar, Dunayevskiylar, Aleksandrovlar (Rossiya), Stravinskiylar (Rossiya – AQSH), milliy kompozitorlik maktablar shakllanishiga dalda bo'lgan Hojibekovlar (Ozarbayjon), Xachaturyanlar (Armaniston) sulolalari tahlil qilindi. Taniqli sulolalarning representativ misollari borliq kategoriyasi ichida har bir namunaning o'ziga xos munosabatlari (vertikal, gorizontaal va aralash) kesimida bu masalani bir kichik aspektini o'rganilishiga qaratgan va musiqa san'atida faoliyat olib borayotgan boshqa va o'zga san'at sulolalarning ushbu tipologik andoza asosida o'rganish imkonini beradi.

Musiqiy sulolalar kengligi va mustahkamligi avlodlari soni bilan cheklanmasdan, eng avvalo kasbiy yo'nalishda yillar davomida muvaffaqiyatli amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya strategiyasi yoki oilaviy taktikasi bilan belgilanadi. Musiqiy oilaviy tarbiya o'zining yakuniy maqsadida yosh avlodni tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sharoitlarga raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni nazarda tutgan. Bu borada har bir oilaning o'z strategik maqsadni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan xaritasi, ya'ni, tartibi va ketma-ketligi bo'yicha aniq belgilangan, erishishga qaratilgan maxsus ta'lim vositalari, usullari va uslublarning majmuaviy ko'rinishi shakllangan. Ko'p avlodli musiqiy sulolalarda «inson kapitali» yoki «jamoaviy xotira» tushunchasi oilaviy ta'lim va kasbiy an'analarni vorislik asosida in'om etilishda nisbatan turg'un ko'rinishni tashkil qiladi. «Jamoaviy xotira» musiqiy sulolalarning gorizontaal munosabatlarda yoyilgan ko'rinishida ham namoyon bo'ladi.

Musiqiy sulolalarning tipologiyasiga doir umumiy aniqlashtiruvchi mezonlaridan tashqari, o'rganilayotgan fenomen haqida bilimlarni yanada chuqur va keng tadqiq qilish maqsadida sulolalarni kasbiy faoliyati va ixtisosligi bilan bog'liq bir muncha tor, aniqlashtiruvchi va maxsus tahliliy aspektlariga to'xtash, jumladan, ixtisoslikdagi vorislik an'analarni o'rganishini taqozo etadi. Mazkur masala bobning «**Oilaviy musiqiy ta'lim va kasbiy ixtisoslik – vorislik an'analari**da» (§3.2) nomli faslida yoritilgan.

Musiqiy sulolalar oilaviy kasb ixtisosligini egallashiga qarab *mono va poli* ko'rinishda kelish mumkinligini belgilandi. Mono ko'rinishda musiqiy avlod yoki

oila a'zolari ko'pincha musiqiy ta'limni tor va yagona ixtisosligini o'rganib, avloddan avlodga uni ijroviy va ijoddagi sir-asrorlarini mukammal egallashda, ushbu yo'nalishning ravnaqiga katta qo'shgan hissasi bilan e'tiborga tushadilar. Kasbiy ixtisosligi faqat bir turi bilan cheklanmagan holda, ijodkorlik faoliyatida uning turli kasbiy ko'rinishlarini muvaffaqiyatli olib borilishi sulolalari *poli* ixtisoslik ko'rinishiga kiritish uchun asos bo'ladi. Har bir musiqiy sulolalarni o'rganish, ushbu ixtisoslikni egallashda oila davrasida shakllangan o'ziga xos ta'lim va tarbiya modeli, avlod vakillaring o'sishi va ulg'ayishi bilan oilaviy muhitda ro'y bergan o'zgaruv jarayonlari, hodisalarning ichki va tashqi sababi, natijalari kabi keng ko'lamli ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog'liq masalalarni yoritilishini taqozo etadi. O'z navbatida borliq kategoriyasi sifatida har bir musiqiy sulolalarni o'ziga xos betakror yo'li bu borada tahlil qilinib, ma'lum tarixiy muddat kesimida ro'y bergan doimiy va transformatsion asoslarini aniqlashga turtki beradi. Bu borada ikki yirik musiqiy sulolalar – Baxlar va Kuperenlar sulolasi tahlil qilindi.

Jahon musiqa tarixida eng katta va zabardast Baxlar sulolasining sermahsul ijodiy faoliyati bizga umumiy Baxlar sulolasining ijodiy faoliyati yorqin fenomeni ekanini namoyish qilib uning namoyandalari universal ijodkorlar bo'lib ixtisosligi bo'yicha poli turda ya'ni, kompozitorlar, sozandalar, organchi, klavesinistlar, kantor va kapelmeysterlar, pedagoglar bo'lib ular ijod qilgan davrlarining ilg'or musiqiy uslublari, janr va shakllari, polifonik ijro uslubi va ijrochilik maktabi, o'zining oilaviy pedagogik modelini yaratishga muvofiq bo'ldilar. Musiqa olamida sulola vakillarini qo'lga kiritgan muvaffaqiyatlari teng bo'lmasada, Yevropa musiqa rivoji va taraqqiyotiga qo'shgan sarhisob ulushi shubhasiz ulkan. Bu borada sulola vakilining alohida va tarixiy bosqich mobaynida to'plangan umumiy sarhisob faoliyati bunga yorqin bir misol. Bax sulolasi vakillarining tarbiyasida axloqiy va kasbiy talabalar, ma'naviy muhit va oilaviy qadriyatlar ruhida sodiq bo'lib kamol topishi, sulola namoyandalarni turli tarixiy va ijtimoiy va madaniy shart-shartlarda yangi davr talabi va ehtiyojlarga moslangan holda, o'z an'analarni davom ettirishi va shu bois, sulolaning musiqa san'atida asrlar mobaynida badiiy va hayotiy bardavomligini ta'minlashda bosh omil bo'lib qoldi. I.S.Bax o'z farzandlariga bergan saboqlari o'tmish barokko davr musiqa san'atining gullagan an'analari rivoj topib yangi avlod sulola vakillari uchun yutuqlari bilan birga to'sqinliklar ham yaratganini tahlil asosida ko'rdik. Baxlar sulolasining yosh avlodi tarixiy-ijtimoiy davr madaniyatining talablariga moslanib, ba'zan qayta ta'lim olishga majbur bo'lishiga qarmay musiqa san'ati rivojiga, novatorlik hissasi bilan e'tirof etilgan namoyandalariga aylandilar.

Kuperenlarning avlodida aksariyati sozandalikning turlari bo'yicha organchilar, klavesinistlar, xonanda va kompozitorlar bo'lib tanilgan vakillari mazkur sulolani poli ixtisosligiga mansub. Dastlabki davrlarda shakllanib kelgan ko'plab sulolalarning musiqiy faoliyati bir vaqtning o'zida ham ijrochilik, kompozitorlik, dirijyorlik, pedagogik va kasb mutaxassisligini o'ranib targ'ib etishga qaratilgan musiqiy – tanqidiy, tashkiliy faoliyatlarni bir vaqtni o'zida amalga oshirilishini taqozo etgan. Baxlar sulolasi kabi barokko va so'nggi

davrlarda ijod qilgan musiqiy sulolalarning avlodlari tarkibida mono ko‘rinishdagi ixtisoslikni o‘zi deyarli uchramaydi. kasbiy ixtisosliklarining doirasi bu fikrni yanada mustahkamlab beradi. Dissertatsiyada ma‘lum cholg‘u yo‘nalishida nomqozongan sulolalar orasida gorizontal ko‘rinishdagi Oystraxlar, Koganlar, aralash munosabatdagi poli ixtisoslik namunalari Neygauz-Blumenfeld-Shimanovskilar sulolasi misolida ko‘rib chiqildi. Poliixtisoslik, nafaqat ijtimoiy davrning tarixiy o‘ziga xos tavsifiy belgisi bo‘lib, balki har zamonda san’atkor nomi va faoliyatining ajralmas qismini tashkil qilgan.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **«O‘zbekiston musiqa san’ati taraqqiyotida sulolaviylik an’analarini»** deb nomlanib ikki fasldan tashkil topgan. Xususan, birinchi fasl **«Musiqiy sulolaviylik an’analarini o‘tmish va zamonaviy ijodiyot kesimida»** (§4.1) deb nomlanib, O‘zbekiston hududida musiqiy sulolaviylik an’analarini turfa ko‘rinishi va bu borada mamlakatimizda milliy kasbiy ijrochilik an’analarida obro‘ qozongan yirik sulolalar tipologik yonashuv asosida tahlil qilinadi.

Sharq xalqlarining uzoq o‘tmishdagi boy tarixi, yashash tarzi, ma’naviy va madaniy qadriyatlari bizga o‘zga sohalarda sulolaviylik an’analarini gullab yashnashi va rivoji misollarini namoyon qilgan (hunarmandchilik, ilm-fan, san’at soha egalarini yorqin faoliyati bunga misol bo‘la oladi. O‘zbekiston madaniyati ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan sulolalar va musiqiy oilalar borki ularni o‘z sohalarida qo‘lga kiritgan ijodiy yutuq va zafarlari xalqimiz e’tiboriga havola etilib ibrat maktabi o‘rnida o‘rganilishi maqsadga muvofiq. Azaldan og‘zaki an’anadagi musiqa ijodiyoti asosida rivoj topgan o‘zbek musiqa san’ati ham turli tarixiy va ijtimoiy bosqichlarda «ustoz-shogird» tizimi asosida aynan qarindoshlik rishtalar zahirida muvaffaqiyatli davom ettirib kelingan. Jumladan, butun Yaqin va O‘rta Sharq musiqa ilmi va ijodiyotida iz qoldirgan ota bola Ibrohim (742-804) va Ishoq (767-850) Xatam Mavsuliyalar, temuriylar saroyi bosh musiqachisi, bastakor va olim Xo‘ja Abdulqodir Marog‘iy (1353-1435), uning o‘g‘li Abdulaziz, nabirasi Muhammadning Samarqand va boshqa shaharlardagi serqirra faoliyatlarini misol sifatida eslashimiz mumkin.

Mamlakatimizning milliy merosini o‘zida jamlagan dostonchilik san’ati ham baxshi-shoirlar, oqin va jirovlarning ijodiy tafakkuri bilan avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Yurtimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm viloyatlari shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida eng qadimiy ijrochilik turi-baxshichilik (dostonchi, oqin, jirau, baksi, yuzboshi, sannovchi, soqi, jirchi) san’ati rivojlangan bo‘lib, hozirgi kunda Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Chiroqchi, Dehqonobod, Sherobod, Boysun, Janubiy Tojikiston, Xorazm hamda Qoraqalpoq dostonchilik maktablari asosida bir-biridan o‘ziga xos va betakror ijro usullari va ijro dasturi bilan farqlanib rivoj topmoqda. Dissertatsiyada sulolaviylikning yorqin an’analarini – Qodir baxshi Rahimov, Umir baxshi Safarov, sherobod dostonchilik maktabi vakillari Sherna baxshi avlodi, Qoraqalpoq baxshichilik san’atida tanilgan Qudaybergen baxshi, Xorazm baxshilari maktabining yirik vakillari – Abdullayevlar sulolasi, reprezentativ misollarida tahlil qilingan.

Sulolaviylik an'analari Sharq xalqlarining kasbiy musiqa san'atida, jumladan, maqom ijrochiligi, uning betakror namunalari bo'lmish Shashmaqom, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari misolida o'zbek xalqining benazir musiqiy san'ati, ma'naviy xazinasi misolida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy-tarixiy taraqqiyot jarayonida «ustoz-shogird» an'analari namoyon bo'lgan ijodiyot namunalari muhrlanib qolgan. Bu borada Boboxonovlar, So'fixonovlar, Shojalilovlar, Xarratovlar, Jalilovlar, Boltayevlar sulolarining yorqin ijodiy faoliyati misolida tadqiq qilindi.

XX asrda dadil qadamlar bilan mamlakatimizga kirib kelgan va bugunda yorqin va o'ziga xos ko'rinishini tashkil qilgan o'zbek kompozitorlik maktabi, Yevropa ijrochiligi, musiqiy ilm va pedagogika sohalarida samarali ijod qilayotgan bir qator namoyandalari orasida musiqiy sulolaviylik ko'rinishida faoliyat olib borgan avlodlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Aksariyat musiqiy sulolalarning vakillari o'tmish va zamonaviy san'at yo'nalishlari, shuningdek turli musiqa ixtisosliklarni egallashda bosh qosh bo'lib, oilaviy ta'lim tizimining muvaffaqiyati o'rinda sulola san'atkorlarining jamiyatda erishgan yutuqlariga qarab baholash mumkin. Bu borada XX asr asos solingan va yangi musiqiy ijodiyot turlarida faoliyat olib borayotgan avlod vakillari yosh sulolalar toifasida qayd etilishi, hamda, oxirgi avlod vakillarining yutuqlari nihol bo'lib barg yozayotgan bir bosqichda yaqin kelajakda tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etilishi uchun zamin yaratmoqda. O'zbekistonda G'anijon Toshmatov, Tolibjon Sodiqov, Sovet Varelas, Feliks Yanov-Yanovskiy, Vladimir Yudenich, Kuvonch Usmonov, Matyaqub Rahimov, Razzoq Musayev, Ortiq Otajonov, Bekjon Otajonov, Egambergan Mo'minov, Rahmon Ollabergenov, Duridboy Karimov Qoraqolpog'istonda – Kenes Abdullayev, Zeynel Piyazov va boshqa ko'plab elga tanilgan san'atkorlar avlodiga asos solgan sulolalari shular jumlasidan.

Musiqiy sulolaviylik hodisasi rang-barangligi va serqirraligi, hamisha o'zgarib turuvchi tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy muhit va holatlarda o'zini namoyon qilishi va ayni damda sulolaviylik hodisasini o'zgarishga moyillik qirrasini, oxirgi davrda yuzaga kelgan yosh va navqiron musiqiy sulolalar tavsifida bir to'xtamga kelib xulosa berishda bizni tiyadi. Bu borada vaqt mezoni musiqiy sulolalar faoliyatini o'rganishga bel bog'lagan kelgusi bosqich tadqiqotchilar uchun ko'lami keng maydonni ochib berishidan shubha yo'q.

Musiqiy sulolalarni borliq kategoriyasi tarkibida mahalliy hudud, mamlakat, Jahon musiqa san'ati rivojiga qo'shgan sarhisob ulushi va o'rni, sulola oilasi yaratgan o'ziga xos ta'lim – tarbiya modeli va strategiyasi darajasi va nufuzini belgilashda bosh omil bo'lib qoladi. Bobning so'ngi fasli «**Musiqiy vorislik – ijodda, ijroda va izlanishda**» (§4.2) da kasbiy ixtisoslik an'analari vorisligi va katta sulolalar darajasida o'rin olgan yorqin representativ musiqiy sulolalar – Xasanovlar, Rajabiylar, Zrkirovlar misollarida ochib berildi.

Sulolaviylik masalasini o'rganish asnosida shunisi ayon bo'ladiki, har bir musiqiy sulola, o'zining ichki kodi, omillar yig'indisi va darajasi, faqat o'ziga xos oilaviy ta'lim modeli asosida shakl topib rivojlanib kelmoqda. Avlodlardan avlodga o'tib, «ustoz-shogird» an'alarini bardavomligini ta'minlab kelayotgan ko'plab

musiqiy sulolalar misolida, asrab avaylab kelingan milliy va tarixiy kasbiy qadriyatlar, avlodlar ta'lim-tarbiya ko'rinishda namoyon bo'lgan sulola bilimi, ko'nikma va tajribalari mujassam etilgan. Katta musiqiy sulolalarning samarali ijodiy faoliyati eng avvalo ularni milliy va jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va san'atdagi yetakchi o'rinlarni ishg'ol qilishi bilan aniqlanadi.

Mamlakatimizda musiqiy sulolaviylik rivojiga tarixan shakllangan qator omillar yaratilgan bo'lib, u ko'hna diyorimizda ijod qilgan va bugunda davom ettirib kelayotgan ko'plab iste'dodli san'atkorlarni yetishtirib kelayotgan sulolalarni ilman o'rganib, oilaviy ta'lim modeli, avlodlar strategiyasini zamonaviy musiqiy ta'limning yangi resurslarini qo'llashda foydalanish mumkin. Ushbu faslda biz O'zbekiston musiqa madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan uchta yirik sulolalarni reprezentativ misol o'rnida tanlab, musiqiy vorislik an'alarini – ijod, ijro va ilmiy izlanishdagi yorqin hodisaviy ko'rinishlarini tahlilida to'xtaymiz. Tanlab olingan sulolalar o'z faoliyatini asosan o'tgan asrning boshlarida boshlab, uch va undan ortiq avlodlarning musiqa san'atidagi samarali faoliyati bilan sulolaviylik fenomenini hayotiylik kuchini isbotlagan holda, yaqin o'tmish musiqiy madaniyatimiz va hozirgi zamon jarayonlarni o'z ichida muvaffaqiyatli payvand etgan. O'z navbatida musiqiy sulola avlodlarining musiqa san'atdagi umumiy xizmati va samarali faoliyatlarining yoritish misolida ularni milliy san'atimizda yirik hodisa sifatida qayd etilishi uchun asos beradi. Vorislikni ijod, ijro va ilmiy izlanishdagi ibratli an'analari milliy va jahon san'atning badiiy-estetik g'oyalari va yuksak ma'naviy qadriyatlarini payvand etgan holda har bir sulolaning oilaviy ta'lim-tarbiyasida aks etilib, uning samaradorligi musiqiy sulolalarning yosh avlod vakillari olib borayotgan ijodiy izlanishlarida ko'zga tashlanadi.

XULOSA

«Musiqiy sulolaviylik fenomeni: tipologiya va mazmun-mohiyati» mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyidagilardan iborat:

1. Jahon musiqa madaniyatida musiqiy sulolaviylik fenomeni tadqiq etilishining konseptual asosi ishlab chiqildi.

2. Musiqiy sulolaviylik fenomenini tadqiq qilishining fanlararo darajasida tarixiy, nazariy, amaliy muammolari doirasida shakllantirildi.

3. Musiqiy sulolaviylik fenomeni Jahon va mahalliy san'atda katta davr, konseptual yo'nalish, butun bir mamlakat ijodiy maktabi va ijrochilik uslublarining yuzaga kelishi, rivoji va taraqqiyotini ta'minlashda katta kuch va kasbiy ijodiy resursga aylanganligi isbotlandi (reprezentativ musiqiy sulolalar tahlili misolida).

4. Musiqiy sulolalar – kasbga yo'naltirilgan ijtimoiy guruh o'rnida, madaniyat va san'at olamida musiqiy ta'lim institutining «oilaviy» shakli sifatida maydonga chiqib, vorislik, samarador ta'lim va tarbiya strategiyasini o'z ichiga birlashtirgan ijtimoiy-madaniy hodisani tashkil etgani isbotlandi.

5. Jahon musiqa madaniyatida musiqiy sulolaviylik fenomeni kelib chiqishi, shakllanishi va rivojlanishining asosiy omillari aniqlandi.

6. Vaqt, makon va borliq kategoriyalari asosida musiqiy sulolalar tipologiyasini o'rganish metodlari taqdim etildi.

7. Yorqin representativ musiqiy sulolalar misolida (G'arbiy Yevropa, Rossiya, O'zbekiston doirasi qamrovida) vaqt, makon va borliq kategoriyalarining mazmun mohiyati ochib berilgan.

8. Jahon musiqa madaniyatida yirik sulolalarning ta'lim-tarbiya modeli va strategiyasi musiqiy sulolaviylik fenomenining hayotiylik mezoniga aylanishi belgilandi.

9. Musiqiy sulolaviylik tipologiyasini tavsifiy qirralarini belgilashda tashqi va ichki omillar, ya'ni, sulola avlodlari yashab faoliyat olib borgan tarixiy davrning madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy tavsifi, sulolalar shakllanishida ijtimoiy vorislik an'analari ta'siri, hamda avlod kengligi va avlodlararo munosabatlar, kasbiy ixtisosligi va yo'nalishi (ijod, ijro va izlanishda), oilaviy ta'lim-tarbiya modeli va avlod strategiyasi, musiqiy faoliyat davomiyligi kabi mezonlarning ahamiyati ochib berildi.

10. Musiqiy sulolalar faoliyatini «jamoaviy xotira» ko'rsatkichi (sulolalarning vakilining alohida va tarixiy bosqich mobaynida to'plangan umumiy sarhisob faoliyati va hissasi) sifatida baholanib, Jahon va milliy musiqa madaniyati taraqqiyotida tutgan katta nufuzi, o'rni va mavqeyini belgilangan.

11. «Ustoz-shogird» oilaviy an'analar tizimida namoyon bo'lgan Sharq va G'arb mamlakatlarining musiqiy sulolalari, bardavomlik (avlodlar soni va kengligi), kasbiy va ijodiy vorislik (avlodlar o'rtasida o'rnatilgan muloqot rishtalari) jihatlari bilan irsiyatdan ustun keluvchi bosh mezonlar bo'lib kelishi va sulolalarning hayotiy kuchiga aylanishi isbotlangan.

12. O'zbekiston tarixida nom qozongan yorqin musiqiy sulolalar faoliyati, ularning ibratli ijodkorlik va ijrochilik an'analari, nafaqat bir oila vakillarining faoliyatida, balki, sulola yetishtirgan shogirdlari va taqdir taqozosi bilan ularning izdoshlariga aylangan sulola vakillarining ijodi misolida, sulolaviylik bardavomligi ta'minlashiga hizmat qilgani aniqlangan.

13. Musiqiy sulolaviy qadriyatlar va ularning negizida shakllangan ijodkorlik va ijrochilik an'analari, kasbiy bilim va tajribalarning uzluksizligi, ixtisoslik va kasb yo'nalishida qo'lga kiritgan yutuqlar, ta'limning sifat ko'rsatkichi va darajasi, zamonaviy ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda tayanch poydevor bo'lishi mumkin. Sulolaviylik fenomeni bo'yicha amalga oshirilgan nazariy va tarixiy tahlillar va ularning asosida chiqarilgan xulosalar musiqa san'ati va ta'lim jarayonini boshqarishda amaliy ko'mak berishi taklif qilinadi.

14. Jahon musiqa san'ati tarixi, bugungi kuni va kelajagi, musiqiy pedagogika va psixologiya, irsiyat masalalari bilan shug'ullanuvchi sohalarni yangi tamoyillar asosida tadqiq qilinishi uchun ham yo'l ochib beradi. O'zligimizni anglash, komil insonni tarbiyalash kabi muhim ma'naviy-ma'rifiy masalalarni ijobiy hal etish jarayonida musiqiy sulolalar faoliyatining ibratli an'analari targ'ib etilishi maqsadga muvofiq.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА НАУК PhD.03/30.12. 2021.San.54.01 ПРИ
ГОСУДАРСТВЕННОЙ КОНСЕРВАТОРИИ УЗБЕКИСТАНА**

ГОСУДАРСТВЕННОЙ КОНСЕРВАТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

ТУРСУНОВА ГУЛШАНОЙ АРТИКЖАНОВНА

**ФЕНОМЕН МУЗЫКАЛЬНЫХ ДИНАСТИЙ: ТИПОЛОГИЯ,
СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ**

17.00.02 – Музыкальное искусство

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА НАУК (DSc) ПО
ИСКУССТВОВЕДЕНИЮ**

ТАШКЕНТ – 2024

Тема диссертации доктора искусствоведения (DSc) по искусствоведению зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № B2022.1.DSc/San18

Диссертация доктора искусствоведения (DSc) выполнена в Государственной консерватории Узбекистана.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.konservatoriya.uz), а также на Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” (www.ziynet.uz).

Научный консультант: **Гафурбеков Тухтасин Ботирович**
доктор искусствоведения, профессор

Официальные оппоненты: **Азимова Арзу Нишановна**
доктор искусствоведения, профессор

Махмудова Гюльзар Рафик-кызы,
доктор искусствоведения, профессор
Бакинской академии музыки имени
У. Гаджибейли (Азербайджан)

Хамидов Хожиакбар Хамидович
доктор исторических наук, профессор

Ведущая организация: Государственный институт культуры и искусств Узбекистана

Защита диссертации состоится “__” _____ 2024 года в ____ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2021.San.54.01 по присуждению учёной степени при Государственной консерватории Узбекистана по адресу: 100027, г. Ташкент, Шайхантахурский район, улица Б.Закирова, дом 1. Тел.: (99871)239-46-53; факс: (99871)244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Государственной консерватории Узбекистана (номер регистрации ____) по адресу: 100027, г. Ташкент, Шайхантахурский район, улица Б.Закирова, дом 1. Тел.: (99871)239-46-53; факс: (99871)244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz.

Автореферат диссертации разослан “__” _____ 2024 года.
(реестр протокола № ____ от “__” _____ 2024 года).

М.А.Хамидова
Председатель Научного совета по присуждению ученой степени,
доктор искусствоведения, профессор

Б.Ш.Ашуров
Учёный секретарь Научного совета по присуждению ученой степени,
доктор философии по искусствоведению (PhD)

С.Б.Косимходжаева
Председатель Научного семинара
при Научном совете по присуждению ученой степени,
кандидат искусствоведения, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В истории мировой культуры существует множество примеров, когда развитие и процветание музыкального искусства неразрывно связаны с именем и непрерывной плодотворной деятельностью ярких музыкальных династий, представители которых в своём суммарном и единичном вкладе, выдающимися достижениями в разных областях творчества оказали решающее влияние на прогресс музыкального искусства в целом, представляя собой яркий социальный феномен. На протяжении веков деятельность музыкальных династий в мировом и региональном масштабах, содействовала успешному формированию и развитию творческих школ, исполнительских стилей и направлений, став залогом долголетия и прогресса национального и мирового искусства. В этом смысле музыкальные династии – социальная группа, объединённая общностью творческой профессии, вышла на мировую арену как институт семейного музыкального образования, утвердив свою значимость и место в обществе.

В мировой науке изучению творческой деятельности всемирно известных представителей музыкальных династий композиторов и исполнителей посвящены монографии, пособия и научные статьи зарубежных авторов. Однако, в контексте проблемы исследования его масштабности, непрерывности, последовательности развития и суммарного вклада нескольких поколений музыкантов в развитие мировой и национальной культуры данный вопрос практически не исследован. Некоторые аспекты проблемы нашли освещение в рамках междисциплинарных наук, фундаментальных и эмпирических исследований ведущих зарубежных ученых в области психологии, генетики, истории и социологии, что подчеркивает важность и необходимость специальных научных исследований в данном направлении.

Приоритетная задача культурной политики нашей страны заключена в следующем: «Строительство Нового Узбекистана является продолжением независимого национального развития на новом этапе, с еще более глубоким изучением нашей древней и новейшей истории, уникального культурного наследия»¹⁹. Изучение феномена музыкальных династий в Узбекистане в связи с этим означает исследование образцовых традиций ведущих отечественных музыкальных династий, воспитание современной молодежи в духе традиций и на основе фундаментальных теоретических, практических знаний и многолетнего опыта, которые могут стать важным подспорьем в решении широкого круга проблем, накопившихся за эти годы в области творчества, системы образования и музыкального исполнительства.

Интервью Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева газете «Янги Ўзбекистон» // 17.08.2021.
<https://review.uz/post/yangi-ozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda>

Данная диссертационная работа служит реализации задач, поставленных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: №УП-6000 от 26 мая 2020 года «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества»; № ПП- 3022 от 31 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию и совершенствованию сферы культуры и искусства»; № ПП-3920 от 26 августа 2018 года «О мерах по инновационному развитию сферы культуры и искусства в республике Узбекистан»; №ПП-4038 от 28 ноября 2018 года «О мерах по дальнейшему повышению роли и значения сферы культуры и искусства в жизни общества» и №ПП-6000 от 26 мая 2020 года «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в республике Узбекистан», а также в других нормативно-правовых актах, касающихся обозначенной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационная работа выполнена в соответствии с приоритетным направлением науки и технологии Узбекистана 1. «Духовно нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор международных научных исследований по теме диссертации.²⁰ В трудах зарубежных авторов феномен музыкальных династий как научная проблема не была изучена, вместе с тем отдельные ракурсы, затрагивающие данную проблематику, нашли отражение в работах междисциплинарного направления, в трудах западных ученых, психологов, генетиков, социологов, а также в исследованиях ведущих научных центров и высших образовательных учреждениях мира, в частности, Marshall University (США), University of Melbourne (Австралия), University of Exeter, Birmingham City University (Англия), Ariel University, Ha-Merkaz ha-Akademi Peres (Израиль), Università degli Studi del Piemonte Orientale «Amedeo Avogadro» (Италия), Hochschule Luzern (Швейцария), University of Groningen (Нидерланды), The Fryderyk Chopin University of Music (Польша), Российским фондом фундаментальных исследований (ФНИСЦ РАН) а также Государственной консерватории Узбекистана.

Термин «музыкальные династии», как феномена, вбирающего в себя прежде всего семейную профессиональную ориентацию, не имеет схожего аналога в зарубежной науке. Отдельные вопросы данной научной проблемы нашли отражение в следующих исследованиях гуманитарных и социальных наук: изучение роли семьи и родителей в выборе будущей профессии детей (University of Melbourne, University of Exeter, Birmingham City University, Российский фонд фундаментальных исследований); особенности и природа

²⁰ www.semanticscholar.org; www.researchgate.net; www.research-repository.uwa.edu.au; www.cambridge.org; www.academia.edu; www.cell.com; www.journals.uchicago.edu; www.isras.ru;

врожденных и приобретённых музыкальных способностей (Marshall University), музыкальные задатки и её наследственный фактор (The Fryderyk Chopin University of Music, University of Groningen), а также, исторические и теоретические исследования в области социологии и генетики, затрагивающие вопросы функционирования института семьи и профессиональной ориентации (Ariel University, Ha-Merkaz ha-Akademi Peres, Università degli Studi del Piemonte Orientale “Amedeo Avogadro”, Hochschule Luzern). Теоретические и исторические вопросы феномена музыкальных династий частично восполняют научные труды и монографии, посвященные творчеству выдающихся композиторов и исполнителей, ставшие яркими представителями известных мировых музыкальных династий. Данные источники служат важным подспорьем в оценке и анализе панорамы наследственного фактора семей, династических поколений и их особенностей.

